

O'zbekiston Respublikasi nomidan
H U K M

2021 yil 15 dekabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudi binosida, ochiq sud majlisida, raislik qiluvchi - sudya Sh.Nurmatov, sudya yordamchisi B.Zokirovning kotibligida, taraflardan davlat ayblovchisi Qarshi shahar prokurori katta yordamchisi N.Karimov, fuqaroviy davogar R.Ravshanov, sudlanuvchi B.Ganiyev va uning himoyachisi advokat U.Nurmatovning ishtirokida, Ganiyev Baxtiyor Doniyarovichga nisbatan 1-1801-2103/528-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi.

Ish hujjatlariga ko'ra:

Ganiyev Baxtiyor Doniyarovich, 07.05.1979 yilda Qarshi shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti o'rta-maxsus, muqaddam sudlanmagan, oilali, 7 nafar farzandlari bor, Qarshi shahridagi "Qarshi sifat oliy" MCHJ rahbari, Qarshi shahar, Otchopar MFY, Xikmat Murodov ko'chasi, 37-uyda yashaydi, garov ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini, 2021 yil 6 noyabr kuni olgan.

Sud sudlanuvchi, fuqaroviy davogar va guvohning ko'rsatuvlarini, prokuror va himoyachining muzokara nutqlarini, tinglab, jinoyat ishidagi dalillarni o'rganib chiqib, quyidagilarni

a n i q l a d i :

Sudlanuvchi B.Ganiyev 07.01.2016 yilda tashkil etilgan "QARSHI OLIY SIFAT" ma'suliyati cheklangan jamiyati rahbari lavozimida ishlab Qarshi shahridagi "Yerqo'rg'on" savdo majmuasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulgurji savdosi bilan shug'ullanib, Vazirlar Mahkamasining 15.10.2020 yildagi "2020-2021 yil qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha muassasalarining asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 648-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining, 06.11.2020 yilgi 75-16/06-sonli Qaroriga ko'ra 2020 yil noyabr oyidan 2021 yil aprel oyiga qadar aholi ehtiyoji uchun asosiy turdagi oziq-ovqat ya'ni kartoshka mahsuloti zaxirasini yaratish va uzluksiz bozorlarga savdoga chiqarishni moliyalashtirish uchun 2 mlrd so'm mablag' ajratilganidan foydalanib, 10.11.2020 yilda Qashqadaryo viloyat hokimligi "Mahalla" xayriya jamoat fondi huzuridagi "Saxovat va ko'mak jamg'armasi" va "QARSHI OLIY SIFAT" MCHJ o'rtasida 01.04.2021 yilga qadar qaytarish sharti bilan bir foiz ustama bilan 2 mlrd. so'm moliyaviy qarz ajratish haqida shartnoma imzolashga erishib, mazkur shartnomaga asosan 20.11.2020 yilda 500 mln, 30.11.2020 yilda 500 mln, 02.12.2020 yilda 500 mln va 14.12.2020 yilda 500 mln, jami 2 mlrd so'm pul mablag'larini jamiyat hisob raqamiga o'tkazib, ushbu mablag'larni AT "ASIA



ALLIANCE BANK” Qarshi filialidan naqd pul shaklida olib, aholini qish va bahor faslida kartoshka mahsulotiga boʻlgan ehtiyojini qondirishi, narx-navoning sunʼiy oshib ketishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida mahsulot zaxirasini yaratib, oʻziga ajratilgan mablagʻdan samarali foydalanib, 01.12.2020 yildan 30.03.2021 yilga qadar bosqichma-bosqich har 15 kunda 294 tonnadan jami 1617 t. kartoshka mahsulotini jamgʻarib, savdoga chiqarib borishi lozim boʻlsada, hech qanday hujjatlarsiz Qozogʻiston Respublikasida yetishtirilgan “Elita”, “ORDA RIS” va “Yantar” nomli 235 tonna 200 kg guruch mahsulotlarini naqd pulda olib kelib, ushbu mahsulotni aholi uchun qulay narxlarda bozorlarda sotilishini tashkil etmasdan, olib kelingan mahsulotlarni jamiyatga kirim qilmasdan oʻzida saqlab kelib, imtiyozli shartlarda ajratilgan mablagʻdan maqsadsiz foydalanib, 2021 yil iyun oyida 363 mln soʻmni jamgʻarmaga qaytarib, 1 mlrd 637 mln soʻmlik juda koʻp miqdordagi budjet mablagʻini oʻzlashtirish yoʻli bilan talon-toroj qilgan.

Shuningdek, B.Ganiyev Qarshi shahridagi “Yerqoʻrgʻon” savdo majmuasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ulgurji savdosi bilan shugʻullanib, Vazirlar Mahkamasining 15.10.2020 yildagi “2020-2021 yil qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha muassasalarining asosiy turdagi qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojni qondirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 648-sonli Qarori ijrosini taʼminlash maqsadida Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 06.11.2020 yilgi 75-16/06-sonli Qaroriga koʻra 2020 yil noyabr oyidan 2021 yil aprel oyiga qadar aholi ehtiyoji uchun asosiy turdagi oziq-ovqat yaʼni kartoshka mahsuloti zaxirasini yaratish va uzluksiz bozorlarga savdoga chiqarishni moliyalashtirish uchun 2 mlrd soʻm mablagʻ ajratilganidan foydalanib, 10.11.2020 yilda Qashqadaryo viloyat hokimligi “Mahalla” xayriya jamoat fondi huzuridagi “Saxovat va koʻmak jamgʻarmasi” va “QARSHI OLIY SIFAT” MCHJ oʻrtasida 01.04.2021 yilga qadar qaytarish sharti bilan bir foiz ustama bilan 2 mlrd. soʻm moliyaviy qarz ajratish haqida shartnoma imzolashga erishib, mazkur shartnomaga asosan ajratilgan 2 mlrd soʻm pul mablagʻlarini jamiyat hisob raqamiga oʻtkazib, ushbu mablagʻlarni AT “ASIA ALLIANCE BANK” Qarshi filialidan naqd pul shaklida olib, hech qanday hujjatlarsiz Qozogʻiston Respublikasida yetishtirilgan “Elita”, “ORDA RIS” va “Yantar” nomli 235 tonna 200 kg guruch mahsulotlari naqd pulda olib kelib, ushbu mahsulotni aholi uchun qulay narxlarda bozorlarda sotilishini tashkil etmasdan, olib kelingan mahsulotlarni jamiyatga kirim qilmasdan, 2021 yil iyun oyida 605.567.500 soʻmlik guruch mahsulotlarini naqd pulda sotib yuborib, juda koʻp miqdordagi savdo va xizmat koʻrsatish qoidalarini buzgan.

Sudlanuvchi B.Ganiyev oʻzining jinoiy harakatlari bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167-moddasi 3-qismi “a” bandi va 189-moddasida koʻrsatilgan jinoyatni sodir qilgan.

Sudlanuvchi B.Ganiyev sudda aybiga toʻliq iqrorlik pushaymonlik bildirib, “Qarshi sifat oliy” MCHJga rahbar boʻlib ishlashligini, Vazirlar Mahkamasining 15.10.2020 yildagi “2020-2021 yil qish-bahor mavsumida aholi va ijtimoiy soha muassasalarining asosiy turdagi qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojni qondirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 648-sonli Qarori, Qashqadaryo viloyat hokimining 19.10.2020 yildagi HQ-907/10-sonli qarori va Xalq deputatlari viloyat kengashining 20.10.2020 yildagi 67-14/06-



sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda Qashqadaryo viloyat hokimi birinchi o'rinbosari O'.Butayevning murojaat xatiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va oyma-oy bozorlarda savdoga chiqarish ishlarini moliyalashtirish uchun Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi "Oziq-ovqat xavfsizligi" jamg'armasini shakllantirishga mablag' ajratish maqsadida, Qashqadaryo viloyat "Mahalla xayriya jamoat fondi" huzuridagi "Saxovat va ko'mak jamg'armasi" pul mablag'lari xisobidan rahbarlik qilib kelayotgan "Qarshi sifat oliy" MCHJ nomiga 2 mlrd so'm pul mablag'lari ajratilganligini, qarorga ko'ra ajratilgan 2 mlrd. so'm mablag' hisobiga kartoshka mahsulotini olib kelishi lozimligini, viloyatda kartoshka zaxirasi yetarli bo'lganligi sababli ushbu mablag'ga 286 tonna guruch mahsulotlarini sotib olib, ushbu guruch mahsulotlarini "Qarshi sifat oliy" MCHJ tegishli bo'lgan Qarshi tumanidagi omborxonaga joylashtirib, Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat zaxirasini yaratganligini, 605.567.500 so'mlik guruch mahsulotlarini sotib pulini kirim qilmaganligini, hozirgi kunda Qashqadaryo viloyat "Mahalla xayriya jamoat fondi" huzuridagi "Saxovat va ko'mak jamg'armasi" dan olingan 2 mlrd. so'm naqd pul mablag'larini to'liq to'laganligini, aybiga iqror va qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, bildirib, qonuniy yengillik berishni so'radi.

Fuqaroviy davogar Ravshanov Rinat Meylievich sudda, "Mahalla xayriya jamoat fondi"da huquqshunos bo'lib ishlashligini, Vazirlar Mahkamasining 15.10.2020 yildagi, Qashqadaryo viloyat hokimining 19.10.2020 yildagi HQ-907/10-sonli qarori va Xalq deputatlari viloyat kengashining 20.10.2020 yildagi 67-14/06-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda Qashqadaryo viloyat hokimi birinchi o'rinbosari O'.Butayevning murojaat xatiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va oyma-oy bozorlarda savdoga chiqarish ishlarini moliyalashtirish uchun Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi "Oziq-ovqat xavfsizligi" jamg'armasini shakllantirishga mablag' ajratish maqsadida, Qashqadaryo viloyat "Mahalla xayriya jamoat fondi" huzuridagi "Saxovat va ko'mak jamg'armasi" pul mablag'lari xisobidan "Qarshi sifat oliy" MCHJ nomiga 2.000.000.000 so'm pul mablag'lari ajratilganligini, "Qarshi sifat oliy" MCHJ tomonidan ajratilgan pul mablag'lari maqsadsiz sarflanib, talon toroj qilib yuborilganligi holati aniqlangach, B.Ganiev tomonidan jamg'arma hisob raqamiga 363.000.000 so'm qaytarilganligini, hozirgi kunda B.Ganiev tomonidan yetkazilgan zarar to'liq TO'LANIB, viloyat prokuraturasi depozit hisob raqamida saqlanayotgan pul mablag'larini "Saxovat va ko'mak jamg'armasi"ga o'tkazib berishni so'radi.

Guvoh Sh.Ganiyeva sudda, B.Ganiyev, Vazirlar Mahkamasining 15.10.2020 yildagi, Qashqadaryo viloyat hokimining 19.10.2020 yildagi HQ-907/10-sonli qarori va Xalq deputatlari viloyat kengashining 20.10.2020 yildagi 67-14/06-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda Qashqadaryo viloyat hokimi birinchi o'rinbosari O'.Butayevning murojaat xatiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va oyma-oy bozorlarda savdoga chiqarish ishlarini moliyalashtirish uchun Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi "Oziq-ovqat xavfsizligi" jamg'armasini shakllantirishga mablag' ajratish maqsadida, Qashqadaryo viloyat "Mahalla xayriya jamoat fondi" huzuridagi "Saxovat va ko'mak jamg'armasi" pul mablag'lari xisobidan "Qarshi



sifat oliy” MCHJ nomiga 2.000.000.000 so‘m pul mablag‘lari ajratilganligini, o‘tkazilgan pul mablag‘lariga kartoshka mahsulotlari olinishi lozimligini, kartoshka mahsuloti tez “aynib” qolishi sababli B.Ganiyev ajratilgan pullarga guruch mahsulotini olib kelganligini ma‘lum qildi.

Bundan tashqari, sudlanuvchi Ganiyev Baxtiyor Doniyarovichning aybi jinoyat ishida mavjud jinoyat ishi qo‘zg‘atish va tegishliligi bo‘yicha yuborish haqida qaror (i.v 1-2);

-“2020-2021 yil qish-bahor mavsumida axoli va ijtimoiy soxa muassasalarining asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan extiyojini qondirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori (i.v 8-17);

-“Oziq-ovqat xavfsizligi jamg‘armasi to‘g‘risida nizom” (i.v 21-25)

-“Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi”ning oziq ovqat zaxiralarini yaratishni tashkil etish to‘g‘risidagi qarori(i.v 26-31)

-shartnoma loyixasi qonun doirasida tuzilganligi to‘g‘risidagi xuquqiy xulosa(i.v.32-37)

-“Qarshi sifat oliy” MCHJga tegishli omborxonani ko‘zdan kechirish bayonnomasi (i.v 57-58) hamda jinoyat ishida to‘plangan boshqa dalillar yig‘indisi bilan o‘z tasdig‘ini topadi.

Dastlabki tergov organi sudlanuvchi Ganiyev Baxtiyor Doniyarovichning jinoiy qilmish harakatlarini, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167-moddasi 3-qismi “a” bandi va 189-moddasi bilan to‘g‘ri kvalifikatsiya qiligan deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llanilishi kerak.

Shu Kodeksning 8-moddasiga binoan, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta‘sir chorasi odilona bo‘lishi, ya‘ni jinoyatning og‘ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli qarorining 1, 3-bandlarida “Sudlarning e‘tibori jinoyat uchun jazo tayinlashda qonuniylik, insonparvarlik, odillik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga qat‘iy amal qilishga qaratilsin”, “Jinoyat kodeksining 8, 54-moddalari mazmuniga ko‘ra, jazo adolatli bo‘lishi-har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning hususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek, jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo‘lishi kerak”, -deb tushuntirish berilgan.

Sud, sudlanuvchi B.Ganiyevga nisbatan jazo turi va miqdorini belgilashda jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, shaxsini, aybiga iqror va pushaymonligini e‘tiborga olib, muqaddam sudlanmaganligini, qaramog‘ida 7 nafar farzandi borligini, yetqazilgan zararni to‘liq qoplaganligini jazosini yengillashtiruvchi holatlar sifatida, jinoyatni g‘arazli va past niyatlarda sodir etganligini jazosini og‘irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olib, JKning



167-moddasi 3-qismi “a” bandi va JKning 189-moddasi bilan ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlashni, JKning 59-moddasiga binoan, tayinlangan jazolarni qisman qo‘shish yo‘li bilan uzil-kesil ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlashni, ish bo‘yicha 2021 yil 11 avgustdan, 2021 yil 21 avgust kuniga qadar qamoqda o‘tirgan,

10 kuni JKning 62-moddasiga asosan 30 kun ahloq tuzatish ishlari jazosiga tenglashtirilib, tayinlangan jazodan chegirishni, yetqazilgan zararni qoplash uchun Qashqadaryo viloyat prokuraturasi depozit hisob raqamiga to‘langan, 1.637.000.000 so‘mni Qashqadaryo viloyat “Mahalla xayriya jamoat fondi” huzuridagi “Saxovat va ko‘mak jamg‘armasi”ning 20212000900471746009 hisob raqamiga o‘tkazishni, B.Ganiyevning garov ehtiyot chorasini bekor qilib, garov tariqasida qo‘yilgan, 20.000.000 so‘mni garov qo‘yuvchi B.Ganiyevga qaytarishni lozim topdi.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko‘ra va O‘zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 462-463, 465-468 va 471-473-moddalariga asoslanib, sud

h u k m q i l d i :

Sudlanuvchi Ganiyev Baxtiyor Doniyarovich, O‘zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi “a” bandi va 189-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilsin.

Ganiyev Baxtiyor Doniyarovichga, JKning 167-moddasi 3-qismi “a” bandi bilan, oylik ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, 1 yil ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin, 189-moddasi bilan oylik ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, 1 yil ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin, JKning 59-moddasiga binoan tayinlangan jazolarni qisman qo‘shish yo‘li bilan uzil kesil oylik ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, 1 yil 2 oy ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin, Jazo ish joyida o‘tattirilsin, jazo muddati hukm ijroga qaratilib oylik ish haqidan davlat daromadi hisobiga undirish boshlangan kundan boshlab hisoblansin, hukm ijrosini nazorat qilish Karshi shahar IIO FMB ma’sul xodimlari zimmasiga yuklatilsin.

JKning 62-moddasiga asosan B.Ganiyevning qamoqda o‘tirgan 10 kuni, 30 kun ahloq tuzatish ishlari jazosiga tenglashtirilib, tayinlangan jazodan chegirilib, o‘tash uchun 1 yil 1 oy jazo qolgan hisoblansin.

Hukm qonuniy kuchga kiringach B.Ganiyevning extiyot chorasi bekor qilinsin, garov tariqasida qo‘yilgan 20.000.000 so‘m garov qo‘yuvchi B.Ganiyevga qaytarilsin.

Qashqadaryo viloyat prokuraturasi depozit hisob raqamiga to‘langan 1.637.000.000 so‘m Qashqadaryo viloyat “Mahalla xayriya jamoat fondi” huzuridagi “Saxovat va ko‘mak jamg‘armasi”ning 20212000900471746009 hisob raqamiga o‘tkazilsin.

Sudlanuvchi B.Ganiyev tomonidan Qashqadaryo viloyat “Mahalla xayriya jamoat fondi” huzuridagi “Saxovat va ko‘mak jamg‘armasi” hisob raqamiga 363.000.000 so‘m qaytarganligi qayd etilsin.



Hukmdan norozi tomonlar hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchi, fuqaroviy davogar hukm nusxasini olgan kundan boshlab, yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining apellyatsiya instansiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi:

Sh.Nurmatov

Хужжат имзоланган: Нурматов Шавкат Батирович, 18.12.2021

